

**«TEKNOLOGIYADARSLARIDAYANGIPEDAGOGIKTEKNOLOGIYALARNINGQO'LLANILISHI»**

**Nazarova Afrizabonu Husenovna**

*Buxoro viloyati Jondor tumani 36 -umumtalim maktabi*

*Texnologiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularni texnologiya dars jarayonlarida qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:***ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayoni, ijodiy faoliyat, "Aqliy hujum" metodi, "Rolli o'yinlar", "Debatlar" metodi.*

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Shu maqsadni amalga oshirishda boshqa fanlar qatori texnologiya fanining ham imkoniyatlari katta. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darsi boshqa fanlar darslaridan tashkiliy va sifati jihatidan farq qilib, bu darsda bugungi kunda faqat ma'lum mehnat qobiliyatini o'rgatish yetarli bo'lmay, balki o'quvchilarni texnologiya darslarida umummehnat asosida ma'naviy tafakkurini to'liq shakllantirishga qaratilgan intiluvchanlik, ijodiy mehnat topshiriqlarini mustaqil bajarish, zaruriyat asosidagi muammolarni anglay olish, o'z oldiga bu muammolarni yechish uchun vazifa qo'ya oladigan sharoitni yuzaga keltirish, o'z ijodiy faoliyatini serqirralikka intiltirish kabi muammolarni hal qilishni ham o'rgatish kerak. O'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi nazorati ostida mustaqil holda o'z qo'li bilan yasagan buyum-mahsuloti madaniy va ma'naviy hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirib o'quvchi uchun bu bizning atrofimizdagi dunyoni kashf qilish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va faoliyatni amalga oshirish, his-tuyg'ularni ifodalash imkonini beruvchi sharoitni yaratib beradi.

Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o'tiladigan mavzu bilan bog'lash o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarni ketma- ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va ko'rgazmali qurollar bilan boyitish, qo'shimcha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratishdir.

Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan biri - ta'lim metodlari va usullarini birbiri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri - barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda oladigan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Dars

davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak. O'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Texnologiya darslarida "Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda o'quvchilarning diqqatini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ularda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O'quvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o'quvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. "Aqliy xujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilmaxilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi. «Aqliy hujum» metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodi qo'llanilganda quyidagi bosqichlar, uzviy bog'langan holda - ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Ya'ni, «Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi:

✓ o'quvchilarga mavzuga oid savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlari so'raladi;

✓ o'quvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

✓ o'quvchilarning fikr-g'oyalari (audio va video ko'rnishida yozib olish, rangli qog'ozlarga yoki doskaga ) to'planadi;

✓ fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

✓ Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar bilan ishlashda o'ziga xos qulaylik va avfzalliklarga ega. Jumladan, "Aqliy hujum" metodini qo'llash jarayonida natijalar baholanmasligi o'quvchilarning turli fikr-g'oyalarni erkin bayon etishiga olib keladi hamda ularning barchasi ishtirok etadi. SHuningdek, o'quvchilarning fikr va g'oyalar vizuallashtirilib, boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi va o'quvchilarda mavzuga bo'lgan qiziqishlarni uyg'otish mumkin.

Rolli o'yinlar. O'qitishning bu usulida o'quvchilar amaliy mashg'ulotlarni «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkonini beradi.

Qo'llanilishi:

- Yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda;
- o'quvchilarni nazariyani amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda;
- o'quvchilar faolligini yanada oshirishda.

Afzalligi:

- «real hayot» ning qayta tiklanishi;
- o'quvchilarning mashg'ulotlarga chuqurroq jalb qilinishi;
- o'quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berish.

Debatlar usuli. O'z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o'quvchilarning bahslashuvda faol ishtirok etishini ta'minlovchi o'qitish uslubidir. Bu uslubdagi foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchi o'z nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois o'qituvchi sinfni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi. (guruhlarga bir-biriga zid nuqtai-nazarlarni aytadi, bahsli topshiriqlar beradi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'ladi.

Qo'llanilishi:

- bahsda o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanganda;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o'rgatishda;
- fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda.

Afzalligi:

- o'quvchilarni bahslashishga o'rgatadi;
- munozara madaniyatiga o'rgatadi;
- asoslab berish malakasini oshiradi.

Demak, o'quvchilarning ko'nikma, malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nimani o'qidim? (o'qiganda) 10 %
2. Nimani eshitdim? (eshitganda) 20 %
3. Nimani ko'rdim? (ko'rganda) 30 %
4. Nimani eshitdim va ko'rdim? 50 %
5. Muhokama, bahs-munozara. 70 %
6. Shaxsan o'zim bajardim. 80 %
7. Ustoz bilan birga bajardim. 90 %

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion usullarni qo'llab dars o'tilganda sinfda, o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o'rganishlariga imkon yaratiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2016.-279 b.

2. Muslimov N.A. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi va kasb tanlashga yo'llash. Toshkent. Sharq. 2014

Saydalievich, U. S., Abdurashid ogli, A. S., & Qurbonboy ogli, X. J. (2021). UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 924-929.

Ismoilovich, M. R., Saydaliyevich, U. S., & Murodjon og, B. K. (2022, May). РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 4, pp. 447-452).

Akhmedov, A. N., & Abdurakhimov, S. A. (2018). The study of the grinding process of rushanka from the nuclei of cotton seeds of different varieties. *CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING*, 2018(3), 17.

Saydaliyevich, U. S. (2022). Struggle of the peoples of Central Asia against the Achaemenids Tomaris, Shirak. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 6, 64-67.

Ogli, Y. A. B., Ogli, A. J. I., & Ogli, U. S. S. (2021). HOLY DEFENSE OF THE COUNTRY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 544-546.

Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2021). Formation Of Science as A Value and Classification of Values. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 3, 172-178.

Arabboy, Y., Sardorbek, S., & saidakbar Saydaliyevich, U. (2022). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF ACCOLOGICAL APPROACH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 1(9), 280-283.

Khalilovich, M. S., Saydaliyevich, U. S., & Ogli, A. O. M. (2022). EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY AND PATRIOTISM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 572-574.

Kuyoshbek, Y., Nurmukhammad, K., Arabboy, Y., Sardorbek, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022, May). THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY THE ARABS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 4, pp. 130-134).